

**UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH VA O'QUVCHILARNI RANG TASVIRIDA ISHLASH
MAHORATINI RIVOJLANTIRISH**

Yuldasheva Baxtiyorxon Jumavoy qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti
Tasviriy san'at va musiqa kafedrasи Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
yo'nalishi 3-bosqich 302-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umum ta'lif maktablarida tasviriy san'at darslarini tashkil etishning zamonaviy tamoyillari, ularni takomillashtirish yo'llari hamda o'quvchilarda rang tasvirida ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish metodlari yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarni estetik didini shakllantirish, ijodiy tafakkurini kengaytirish hamda rangtasvir texnologiyalarini egallahda innovatsion pedagogik yondashuvlar muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, rang tasviri, metodika, ijodiy qobiliyat, estetik tarbiya, innovatsion pedagogika.*

**IMPROVEMENT OF FINE ARTS LESSONS IN GENERAL EDUCATION
SCHOOLS AND DEVELOPMENT OF STUDENTS' SKILLS IN COLOR IMAGES**

Annotation: *This article covers modern principles of organizing fine art lessons in general education schools, ways to improve them, and methods for developing students' skills and qualifications in working with color images. Also, innovative pedagogical approaches to forming students' aesthetic taste, expanding their creative thinking, and mastering color image technologies are discussed.*

Keywords: *Fine arts, color image, methodology, creative abilities, aesthetic education, innovative pedagogy.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УРОКОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ И РАЗВИТИЕ У УЧАЩИХСЯ
НАВЫКОВ РАБОТЫ С ЦВЕТНЫМИ ИЗОБРАЖЕНИЯМИ**

Аннотация: *В статье рассматриваются современные принципы организации уроков изобразительного искусства в общеобразовательных школах, пути их совершенствования, а также методы развития у учащихся навыков и умений*

работы с цветными изображениями. Также рассматриваются инновационные педагогические подходы к формированию эстетического вкуса учащихся, развитию их творческого мышления и освоению технологий работы с цветными изображениями.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, цветное изображение, методика, творческие способности, эстетическое воспитание, инновационная педагогика.

KIRISH

Bugungi kunda ta'limgiz tizimida o'quvchilarning estetik madaniyatini shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi alohida dolzorb ahamiyat kasb etmoqda. Umum ta'limgiz muktablarida tasviriy san'at darslari nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy malakalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, rang tasvirida ishlash mahorati o'quvchilarda nafosatni idrok etish, tasviriy ifoda vositalaridan unumli foydalanish va ijodiy faoliyatga jalgan etishda muhim o'rinni tutadi. Umum ta'limgiz muktablarida tasviriy san'at darslari o'quvchilarning nafaqat ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, balki ularning estetik dunyoqarashini shakllantirishda ham muhim o'rinni tutadi. Bugungi global mashg'ulotlarning sharoitida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularning san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshirish, ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish ta'limgiz tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san'at ayniqsa rang tasvir bo'yicha mashg'ulotlarning o'quvchilarda badiiy idrok, tasavvur, estetik his va didni rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda rang bilan ishlash mahoratini shakllantirish, avvalo, ularga ranglarning nazariy asoslarini o'rgatishdan boshlanadi. Asosiy va qo'shimcha ranglar, ranglarning uyg'unligi, kontrasti, rang ohanglari va psixologik ta'siri haqida chuqur bilim berish ularning kelgusida amaliy ishlarni samarali bajarishiga yordam beradi. Shu jarayonda turli rang materiallari – akvarel, guash, tempera, akril kabi vositalardan foydalanish o'quvchilarda texnik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Mashg'ulotlarning faqat sinf xonasida emas, balki ochiq havoda – tabiat qo'ynida, plenyer mashg'ulotlari tarzida tashkil etish ularning kuzatuvchanligini oshirib, realistik tasvirga yaqinlashish imkonini beradi.

Umum ta'limgiz muktablarida tasviriy san'at fanining o'quv jarayonidagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1-o'quvchilarda estetik did va badiiy tafakkurni rivojlantirish;
- 2-ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- 3-san'at asarlari orqali milliy va jahon madaniyatini anglashga yo'naltirish;
- 4-kasbiy yo'naltirish hamda ijodiy salohiyatni aniqlash.

Shu boisdan tasviriy san'at darslarini takomillashtirish uchun yangi metodik usullar, texnologiyalar va ijodiy topshiriqlarni qo'llash zarur.

METADALOGIYA

Tasviriy san'at ta'limida an'anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish bugungi kun talabi hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida mashg'ulotlarni interfaol tashkil etish, san'at asarlarining elektron albomlarini ko'rsatish, grafik dasturlar orqali raqamli tasvirlar yaratishga o'rgatish o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shuningdek, adabiyot, musiqa, tarix fanlari bilan integrativ yondashuv asosida olib boriladigan darslar o'quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytiradi. Masalan, she'riy parchalarni rang tasvirida ifodalash yoki tarixiy voqealarni tasviriy kompozitsiya orqali aks ettirish o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi. Rang tasvirida ishslash jarayoni o'quvchilarda sabr-toqat, diqqat, mehnatsevarlik, estetik his-tuyg'ular, nafosatni qadrlash kabi insoniy sifatlarni shakllantiradi. Shu bois san'at darslari nafaqat ijodiy ko'nikmalarni, balki tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ijodiy ishlari muntazam ko'rgazmalarda namoyish etilishi, muzeylarga tashriflar, ijodiy tanlovlardan mahorat darslari ularning o'ziga ishonchini oshiradi hamda ijodiy izlanishlarga rag'batlantiradi.

Rang tasvirda ishslash mahoratini shakllantirish bosqichlari quyidagicha. O'quvchilarda rangtasvir ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1.Rang haqidagi nazariy bilimlar – ranglarning fizik xususiyatlari, asosiy va qo'shimcha ranglar, rang uyg'unligi va kontrasti haqida tushunchalar berish.

2.Texnik ko'nikmalar – akvarel, guash, tempera, akril kabi rangli materiallar bilan ishslash usullarini o'rgatish.

3.Ijodiy topshiriqlar – natura asosida rangli tasvir yaratish, mavzu asosida kompozitsiya ishslash, erkin ijodiy mashqlar.

4.Tahlil va baholash – yaratilgan ishlarni tahlil qilish, rang ifodasining badiiy ahamiyatini ochib berish.

Rangtasvirni o'qitishda quyidagi zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish mumkin:

Axborot texnologiyalari – multimedia taqdimotlari, raqamli palitralar va grafik dasturlardan foydalanish;

Integrativ yondashuv – tasviriy san'atni adabiyot, musiqa, tarix kabi fanlar bilan bog'lab o'qitish;

Interfaol metodlar – "klaster", "aqliy hujum", "ijodiy loyihalar" orqali o'quvchilarni faol fikrlashga yo'naltirish;

Amaliy mashg'ulotlar – tabiat qo'ynida plenyer mashg'ulotlari, san'at muzeylariga ekskursiyalar, ko'rgazmalarda ishtiroy etish.

Rang tasvirida ishslash o‘quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi, badiiy idrok va estetik baholash qobiliyati, tasavvur va xayolni rivojlantirish, sabr-toqat, diqqat va mehnatsevarlik, jamoaviy ijodiy faoliyatda hamkorlikni kuchaytirish.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Umum ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanining samaradorligini oshirish o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarligini hisobga olishni talab etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun rang bilan ishslash mashg‘ulotlari asosan o‘yin shaklida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Chunki bu davrda bolalarda kuzatuvchanlik, ranglarni idrok etish va ularni ajrata olish qobiliyati endigina shakllanadi. Rangli qalamlar, flomasterlar, bo‘yoqlar yordamida sodda shakllar va predmetlarni tasvirlash mashqlari ularning qiziqishini oshiradi. O‘rta sinf bosqichida rang tasviri bo‘yicha mashg‘ulotlar murakkablashib, natura asosida ishslash, oddiy kompozitsiyalar yaratish va ijodiy topshiriqlar bajarish asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi. Bu bosqichda o‘quvchilar ranglarning uyg‘unligini, yorug‘lik va soya munosabatlarini, shakl va hajmni to‘g‘ri berishni o‘rganadilar. Shu jarayonda o‘qituvchining metodik yondashuvi juda muhim. Har bir mashg‘ulot o‘quvchilarda estetik qoniqish uyg‘otishi, ularni ijodiy izlanishga undashi lozim. Yuqori sinf o‘quvchilarida rangtasvir mashg‘ulotlari yanada keng qamrovli bo‘lib, mavzuli kompozitsiyalar, murakkab natura mashqlari, ijodiy loyihalar orqali ularning mustaqil ishslash qobiliyati rivojlantiriladi. Shu bilan birga, san’atning boshqa turlari bilan bog‘liqlikda o‘tkazilgan darslar o‘quvchilarning umumiyligi madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, xalq amaliy san’ati namunalardan foydalanish, milliy naqshlar asosida rangli kompozitsiyalar yaratish, tarixiy mavzularni rangtasvirda ifodalash o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarni asrash tuyg‘usini kuchaytiradi. Bundan tashqari, tasviriy san’at darslarini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli grafik dasturlar yordamida tasvir yaratish, rang uyg‘unliklarini elektron palitra orqali o‘rganish, san’at asarlarini onlayn platformalarda tahlil qilish bugungi yoshlarning qiziqishini yanada oshiradi. Bu nafaqat an’anaviy ijodiy ko‘nikmalarni, balki zamonaviy san’at texnologiyalarini egallashga ham yordam beradi.

NATIJALAR

Tasviriy san’at darslarini takomillashtirish va o‘quvchilarni rang tasvirida ishslash mahoratini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonida muhim vazifa bo‘lib, bu yo‘nalishda innovatsion metodlardan foydalanish, amaliy mashg‘ulotlarga keng o‘rin berish va ijodiy muhit yaratish zarur. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, milliy va jahon san’atiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda kelgusida ularni barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. O‘quvchilarni rang tasvirida ishslashga o‘rgatishda mutazam tahlil qilish va o‘zaro muhokama metodidan

foydalinish ham samarali natija beradi. Har bir ijodiy ish bo'yicha o'quvchilarning fikrlarini eshitish, ular orqali o'zaro bahs va tahlil olib borish badiiy tafakkurni rivojlantiradi, estetik baholash mezonlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchining o'quvchilar ijodiga rag'bat berishi, ularning eng kichik yutuqlarini ham qadralashi juda muhim. Shu asosda aytish mumkinki, tasviriy san'at darslari o'quvchilarda faqat rang tasvirida ishslash mahoratini emas, balki keng ma'nodagi estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, milliy o'zlikni anglash va madaniy qadriyatlarga hurmat kabi sifatlarni shakllantiradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumminki umum ta'lismaktablarida tasviriy san'at darslarini takomillashtirish hamda o'quvchilarda rang tasvirida ishslash mahoratini rivojlantirish ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda, estetik tarbiyasini shakllantirishda, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida kamol topishida muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarni amaliy ijodiy faoliyatga jalg etish hamda estetik muhit yaratish asosiy vazifalar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Zokirov B. "Rangtasvir asoslari". – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
4. Gulomova N. "Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar". – Toshkent: Fan, 2019.
5. Xudoyberdiyeva M. "San'at ta'limali innovatsion metodlar". – Samarqand, 2021.
6. Mirzaahmedov B. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
7. Shodmonov Y., Qosimov A. Umumta'lismaktablarida tasviriy san'at darslarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2020.
8. Xasanov A. Ranglar va ularning psixologik ta'siri. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.